

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**TYPOLOGY OF PHRASEOLOGICAL UNITS AND SIMPLE-STRUCTURED PHRASEOLOGISMS****Dildora Shukhratovna Abdullayeva***Basic Doctoral Student, Namangan State University*Email: northern-light@inbox.ru*Namangan, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: phraseological unit, simple structure, semantics, pragmatics, comparative linguistics, English and Uzbek.

Received: 01.01.26**Accepted:** 02.01.26**Published:** 03.01.26

Abstract: This article provides a comparative semantic and pragmatic analysis of simple-structured phraseological units in English and Uzbek. The study demonstrates that structural simplicity does not limit the semantic richness or pragmatic effectiveness of phraseological units. Comparative, descriptive, semantic, and pragmatic methods were employed in the analysis. The findings reveal that simple-structured phraseological units in both languages function as significant carriers of evaluative meaning, expressiveness, and cultural connotation. The results of the research contribute to the theoretical development of phraseology and comparative linguistics and may also be applied in translation studies and language teaching practice.

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VA SODDA QOLIPLI FRAZEOLOGIZMLARNING TIPOLOGIYASI**Dildora Shuxratovna Abdullayeva***Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti.*Email: northern-light@inbox.ru*Namangan, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: frazeologik birlik, sodda qolip, semantika, pragmatika, qiyosiy tilshunoslik, ingliz va o'zbek tillari.

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi sodda qolipli frazeologik birliklarning semantik va pragmatik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda frazeologik birliklarning struktur jihatdan soddaligi ularning semantik

chuqurligi va pragmatik funksionalligiga ta'sir qilmasligi ilmiy asosda yoritiladi. Ishda qiyosiy-tahliliy, tavsifiy, semantik va pragmatik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sodda qolipli frazeologizmlar har ikki tilda ham baholovchanlik, ekspressivlik va madaniy konnotatsiyani ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Olingan natijalar frazeologiya, qiyosiy tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalari uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

ТИПОЛОГИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ И ПРОСТЫХ СТРУКТУРНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ

Дилдора Шухратовна Абдуллаева

Базовый докторант

Наманганского государственного университета

northern-light@inbox.ru

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: фразеологическая единица, простая структура, семантика, прагматика, сопоставительное языкознание, английский и узбекский языки.

Аннотация: В статье проводится сопоставительный семантико-прагматический анализ фразеологических единиц простого структурного типа в английском и узбекском языках. В ходе исследования доказывается, что структурная простота фразеологических единиц не ограничивает их семантическую глубину и прагматическую выразительность. В работе использованы сравнительно-сопоставительный, описательный, семантический и прагматический методы анализа. Результаты исследования показывают, что фразеологизмы простого типа в обоих языках выполняют важную функцию выражения оценочности, экспрессивности и культурной коннотации. Полученные выводы имеют теоретическую и практическую значимость для фразеологии, сравнительного языкознания и переводоведения.

Kirish. Frazeologik birliklar tildagi turg'un leksik birikmalar bo'lib, ular semantik yaxlitlik va grammatik barqarorlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ularning mohiyati shundaki, tarkibidagi leksik va grammatik unsurlar o'zaro uyg'unlashib, erkin so'z birikmalarida kuzatilmaydigan barqaror ma'no va ifodaviylikni yuzaga keltiradi. Shu boisdan ham frazeologik

birliklar uzoq yillardan beri tilshunoslikda alohida tadqiqot obyektiga aylanib kelmoqda. E'tiborli jihati shundaki, bu birliklarni to'g'ri aniqlash, tasniflash va izohlash uchun turli nazariy yondashuvlar zarur bo'ladi. Masalan, o'zbek tilidagi og'zi qulog'ida iborasi so'zma-so'z "og'iz" va "quloq"dan tashkil topgan bo'lsa-da, semantik jihatdan "nihoyatda quvonish" ma'nosini bildiradi. Ingliz tilida esa to spill the beans iborasi "loviyani to'kish" ma'nosidan farqli o'laroq "sirni ochib qo'yish"ni anglatadi. Bu kabi misollar frazeologik birliklarning universalligini ko'rsatadi.

Frazeologiya dastlab leksikologiyaning tarkibiy bo'limi sifatida ko'rilgan. Biroq XX asr boshidan boshlab u mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllana boshladi. Fransuz olimi Sh. Balli "frazologiya" terminini fan doirasiga kiritib, uni so'z birikmalarining uslubiy va ekspressiv xususiyatlarini tahlil qilishda qo'lladi. Ballining bu qarashlari frazeologiyani nazariy tilshunoslikning alohida sohasi sifatida shakllanishiga asos bo'ldi. Bizningcha, Ballining yondashuvi frazeologiyani faqat tildagi hodisa sifatida emas, balki nutqning ifodaviy qudratini ochib beruvchi vosita sifatida ham qarashga yo'l ochdi.

Rus tilshunosligida Y.D. Polivanov frazeologiyani "fonetika, morfologiya va sintaksis qatorida mustaqil tarmoq sifatida o'rganish zarur"ligini ta'kidlagan. Bu qarashdan ko'rinadiki, u frazeologiyaning til tizimidagi o'rnini grammatik va fonetik bo'limlar darajasida baholagan. Shuni qayd etish lozimki, Polivanovning nazariy qarashlari o'zbek tilshunosligida ham muhim iz qoldirgan. Chunki o'zbek tilidagi frazeologik birliklarni mustaqil o'rganishga qaratilgan ilk izlanishlar ham xuddi shu tamoyilga tayanadi. V.V. Vinogradov esa frazeologik birliklarni uch turga ajratadi: "frazologik chatishmalar (idiomalar), qisman motivlangan frazeologik birliklar va erkin birikmalarga yaqin bo'lgan motivlangan frazeologik birikmalar". Olimning ta'kidlashicha: "frazologik chatishmalar semantik jihatdan mutlaqo nomotivlangan bo'lib, ularning umumiy ma'nosi tarkibiy qismlaridan umuman kelib chiqmaydi; frazeologik butunliklarda esa semantik bog'liqlik qisman seziladi, qo'shilmalarda esa tarkibiy qismlarning ma'nosi umumiy mazmun bilan uyg'unlashadi". Shu nuqtai nazardan qaralganda, Vinogradovning tasnifi frazeologik birliklarni semantik motivatsiya darajasi asosida tahlil qilish imkonini berdi. Masalan, o'zbek tilidagi boshi berk ko'cha iborasi yoki ingliz tilidagi kick the bucket iborasi chatishmalarga misol bo'lsa, yuragi tog'dek yoki heart of stone iboralari butunliklarga, ko'ngli yorishdi yoki make a decision iboralari esa qo'shilmalarga yaqin turadi. Shuni ta'kidlash lozimki, Vinogradovning tasnifi grammatik va tarkibiy mezonlarga tayanadi, biroq ba'zi tadqiqotchilar u semantik va pragmatik omillarni yetarli darajada yoritmaganini qayd etadilar. E'tiborlisi shundaki, Vinogradovning ushbu tasnifi keyinchalik ko'plab rus va xorijiy tadqiqotchilar uchun asosiy nazariy mezon bo'lib xizmat qildi.

Frazeologiyani kontekst asosida izohlash masalasida N.N. Amosova alohida ilmiy yondashuv taklif qilgan. U frazeologik birliklarni “doimiy kontekst birliklari” sifatida belgilab, “ularning erkin soʻz birikmalaridan asosiy farqi qatʼiy kombinatsiyalashganligidadir” deya taʼkidlagan. Bu qarash frazeologiyani nutqiy vaziyat bilan bogʻliq holda talqin qilishga olib keldi. Amosovanning yondashuvi frazeologizmlarni erkin soʻz birikmalaridan ajratishda muhim ahamiyatga ega boʻldi, chunki erkin birikmalarda kontekst oʻzgarishi mumkin, frazeologik birliklarda esa kontekst barqaror qoladi. Masalan, ingliz tilidagi red tape iborasi yoki oʻzbek tilidagi qizil chiroq iborasi erkin qoʻllanmada turlicha talqin qilinishi mumkin emas, ular doimiy kontekstda oʻz maʼnosini saqlaydi. Bizning mulohazamizga koʻra, Amosovanning bu yondashuvi frazeologiyaning pragmatik jihatlarini ham ochib berdi, chunki doimiy kontekst faqat semantik emas, balki kommunikativ vazifa ham bajaradi.

I. Melʼchuk esa frazeologik birliklarning eng muhim belgilarini “barqarorlik, takrorlanuvchanlik, yaxlitlik va idiomatiklik” sifatida belgilaydi. Unga koʻra: frazeologizmlar tilda muntazam takrorlanadigan, tarkiban barqaror, semantik jihatdan yaxlit va idiomatik tabiatga ega birliklardir. Shuni alohida taʼkidlash kerakki, Melʼchukning yondashuvi frazeologizmlarni faqat semantik emas, balki tizimli-lingvistik birlik sifatida talqin qilishga imkon beradi. Masalan, oʻzbek tilidagi tosh yoymoq yoki ingliz tilidagi spill the beans iboralari idiomatik xususiyati tufayli frazeologik birlik sifatida qabul qilinadi.

Soʻnggi yillarda Gʻarb va AQSh tilshunosligida frazeologiya nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham faol tadqiq etilmoqda. Jumladan, til oʻzlashtirish jarayonlarida frazeologik birliklarning roli alohida taʼkidlanmoqda. Olimlar fikricha, “frazeologik birliklardan foydalanish oʻquvchining lugʻat boyligini kengaytiradi, nutqni tabiiylashtiradi va madaniy kontekstni chuqurroq tushunishga xizmat qiladi”. Demak, frazeologiyani oʻrganish faqat nazariy emas, balki lingvodidaktik jihatdan ham dolzarbdir.

Oʻzbek tilshunosligida frazeologiyani ilmiy asosda tadqiq qilish Sh. Rahmatullaev ishlaridan boshlangan. Keyinchalik Yoʻldoshev va hamkasblari, Mamatov va boshqa oʻzbek olimlari, Q.Xakimov kabi olimlar FBlarning grammatik, semantik va funksional xususiyatlarini keng yoritgan. Mamatov frazemalarning leksik tarkibi oʻzgaruvchan boʻlishi mumkinligini, natijada yangi frazeologik birliklar shakllanishi sodir boʻlishini taʼkidlaydi.

Oʻzbek tilshunosligida frazeologiya ilmiy asosda tadqiq qilinishi Sh. Rahmatullaev nomi bilan bogʻliq. U “frazeologik birliklarning turlari, semantik va grammatik xususiyatlarini tizimli ravishda oʻrganish zarurligini” taʼkidlagan. Keyinchalik B. Yoʻldoshev, A. Mamatov va Q. Xakimov kabi olimlar frazeologik birliklarning grammatik, semantik hamda funksional xususiyatlarini keng yoritdilar. Xususan, A. Mamatov “frazeologik birliklarning leksik tarkibi oʻzgaruvchan boʻlishi mumkinligi va buning natijasida yangi frazeologik birliklar shakllanishi

sodir bo'lishi"ni qayd etadi . Bizning nazarimizda, bu qarash frazeologiyaning dinamik va rivojlanib boruvchi hodisa ekanini yaqqol namoyon etadi.

Xitoy tilshunosligida frazeologik birliklarni o'rganish XX asr oxiridan boshlangan bo'lib, ularning milliy-madaniy komponentlarga boyligi alohida e'tiborga loyiqdir. Xitoy frazeologiyasida chengyu deb ataluvchi to'rt iyeroglifli turg'un birliklar mavjud bo'lib, ular "eng ixcham va ifodali frazeologik birliklar" sifatida qaraladi . Shu jihatdan, chengyular milliy madaniyat va tarixiy tajribani o'zida mujassam etadi, xalqning estetik qarashlarini ifodalaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Xalqaro tadqiqotlarda ta'kidlanganidek: " frazeologik birliklarni o'rganish faqat lingvistik nuqtai nazardan emas, balki madaniy va kognitiv jihatdan ham muhimdir" . Shundan kelib chiqadiki, har bir til tizimidagi frazeologizmlar millatning tarixiy tajribasi, milliy mentaliteti va estetik dunyoqarashini ifodalaydi. Shu bois, ularni tadqiq qilishda milliy-madaniy omillarni hisobga olish zarur.

Turli tilshunoslik maktablarida qo'llaniladigan metodlar xilma-xilligiga qaramay, frazeologik birliklarning umumiy tizimli xususiyatlari mavjud. Natijada, bu holat kelgusida qiyosiy frazeologik tadqiqotlarni rivojlantirish uchun mustahkam ilmiy zamin yaratadi. Shuningdek, frazeologizmlarning til o'zlashtirish jarayonidagi o'rni ham muhim: ular o'quvchining lug'at boyligini kengaytiradi, nutqiy malakani shakllantiradi va madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradi.

Umuman olganda, turli tilshunoslik maktablari frazeologik birliklarni o'rganishda o'ziga xos yondashuvlarni ishlab chiqqan. Rus tilshunosligida "tizimlilik" tamoyili asosiy mezon bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, Yevropa maktabida ko'proq "semantik va funksional xususiyatlar"ga e'tibor qaratilgan. O'zbek tilshunosligida esa milliy-madaniy jihatlar, Xitoy tilshunosligida esa tarixiy va yozma manbalar asosiy tadqiqot manbasi sifatida ko'rilgan. Shu bois, ushbu yondashuvlarning xilma-xilligi kelgusida qiyosiy frazeologik tadqiqotlar uchun keng imkoniyat yaratadi.

Sh. Rahmatullayev frazeologik birliklarning mohiyatini quyidagicha izohlaydi: "Frazema — kamida ikki leksemadan tashkil topgan, semantik-sintaktik bog'langan va umumlashgan ko'chma ma'no hosil qiluvchi birlikdir" . Ushbu birliklar turg'un tuzilishga ega bo'lib, ular nutqda obrazlilik va bo'yoqdorlikni oshirishda muhim vazifani bajaradi. Bizning nazarimizda, Rahmatullayevning bu ta'rifi turg'un birikmalarni nafaqat semantik, balki kommunikativ-pragmatik birlik sifatida ham anglashga imkon beradi.

A.A. Abduazizov frazeologik birliklarni uch turga ajratadi :

1. Frazeologik qo'shilmalar — tarkibidagi bir so'z to'g'ri, ikkinchisi ko'chma ma'noda bo'ladi (masalan, hordiq chiqarmoq).
2. Frazeologik butunliklar — tarkibiy qismlarining ma'nolari birikib, umumiy ko'chma ma'no beradi (masalan, eti suyakka yopishgan).

3. Frazeologik chatishmalar — tarkibiy qismlar ma'nosi bilan iboraning umumiy ma'nosi o'rtasida hech qanday leksik aloqa yo'q (masalan, sichqonning inini ijaraga olmoq).

Shuni ta'kidlash lozimki, Abduazizovning bu tasnifi frazeologik birliklarning ichki semantik tuzilishini aniqlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

B. Yo'ldoshev esa frazeologik birliklarning kommunikativ vazifasiga alohida e'tibor qaratib, ularni "nutqning ta'sirchanligi va ifodaliligini ta'minlovchi birliklar" sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha, frazeologizmlarning nutqiy vazifasi ularning semantik yaxlitligi va turg'unligi bilan chambarchas bog'liqdir. Shundan kelib chiqib, Yo'ldoshev yondashuvi frazeologik birliklarning faqat til tizimidagi o'rnini emas, balki ularning ijtimoiy-kommunikativ funksiyasini ham ochib beradi.

Q. Xakimov frazeologizmlarni lingvopragmatik nuqtai nazardan tahlil qilar ekan, ularning nutqdagi funksional xususiyatlarini chuqur o'rganadi. U shunday deydi: "Frazeologizmlar nutqda faqat leksik birlik sifatida emas, balki pragmatik yuklamaga ega bo'lgan madaniy belgi sifatida ham namoyon bo'ladi". Shuni ta'kidlash lozimki, Xakimovning bu qarashi leksik birliklarning nutqiy vazifasini kengroq qamrab olib, ularni faqat tilning semantik hodisasi sifatida emas, balki madaniyat va ijtimoiy kommunikatsiyaning integral qismi sifatida tushuntirishga yordam beradi.

Frazeologik birliklarning tipologiyasi masalasi G'arb tilshunosligida ham keng yoritilgan. Masalan, C. Fernando turg'un birikmalarni uch asosiy guruhga bo'ladi:

- Idiomlar — ma'nosi tarkibiy qismlaridan kelib chiqmaydigan iboralar (kick the bucket).
- Phrasal collocations — qisman motivlangan, bir qismi ko'chma, bir qismi to'g'ri ma'noda ishlatiladigan birikmalar (make a decision).
- Fixed expressions — shaklan turg'un, lekin semantik jihatdan erkinroq iboralar (by the way) .

Shu jihatdan, Fernando tasnifi frazeologizmlarning ichki qatlamini ochib berish va ularni qiyosiy o'rganishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

R. Moon ingliz tilidagi idiomalarni keng ko'lamda tahlil qilgan holda, ularning faqat semantik emas, balki diskursiv va kognitiv xususiyatlariga ham alohida e'tibor qaratadi. Unga ko'ra, "idiomlar nutqda semantik birlik bo'lishi bilan birga, ular ijtimoiy-kognitiv funksiyani ham bajaradi". Shu asosda, Moonning yondashuvi frazeologik birliklarga shunchaki turg'un iboralar sifatida emas, balki til vositasida aks etuvchi ijtimoiy tafakkurning mahsuli sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi. Bizning nazarimizda, bu yondashuv frazeologiyaning lingvokulturologik va pragmatik talqinlarini uyg'unlashtirib, uning xalqaro tadqiqotlarda dolzarb mavzu ekanini yanada mustahkamlaydi.

Shuningdek, P. Cowie frazeologiyani lug'atshunoslik nuqtai nazaridan o'rganadi. U frazemalarni ingliz lug'atlarida to'g'ri ifodalash bilan bog'liq muammolarni ko'tarib chiqib,

“frazeologik birliklarning semantik nozikliklarini yoritishda maxsus frazeologik lug’atlarning mavjudligi zarur”deb hisoblaydi . Uning fikricha, umumiy lug’atlar frazemalarning ko’p qirralligi ma’nolarini to’liq aks ettira olmaydi, bu esa foydalanuvchida noto’g’ri tushuncha shakllanishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, Cowiening yondashuvi frazeologik birliklarni amaliy qo’llanmalarda to’g’ri aks ettirish zarurligini ko’rsatadi.

Bu ikki olimning qarashlari frazeologik birliklarni tilshunoslikda nafaqat nazariy, balki amaliy nuqtai nazardan ham tadqiq etish lozimligini ko’rsatadi. Shuni ta’kidlash lozimki, idiomalarning diskursdagi roli, ularning madaniy anglanish darajasi hamda ularni izohlovchi manbalar mavjudligi zamonaviy frazeologik tadqiqotlarda ustuvor yo’nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

J. Sinclair korpus lingvistikasiga asoslanib, frazeologik birliklarning tabiatini “frazeologik tamoyil” orqali tushuntiradi. Uning fikricha, til foydalanuvchilari nutq jarayonida ko’pincha tayyor qoliqli birliklardan foydalanadilar va bu hodisa til tizimining asosiy qonuniyatlaridan biridir. E’tiborli jihati shundaki, Sinclairning bu yondashuvi frazeologiyani zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda korpus metodologiyasi bilan bog’lab, uni empirik asoslangan nazariyaga aylantiradi.

A. Wray esa tayyor qoliqli birliklarni (formulaic sequences) o’rganib, ularning psixolingvistik xususiyatlariga urg’u beradi. Olimning fikricha: “tayyor qoliqli birliklar til o’rganish jarayonini tezlashtiruvchi vosita sifatida qaralishi mumkin” . Shu nuqtai nazardan qaralganda, Wrayning ushbu yondashuvi tayyor qoliqli birliklarning nafaqat psixolingvistik, balki metodik jihatdan ham samaradorligini ko’rsatadi. Chunki tayyor qoliqli birliklar til o’rganuvchilar uchun tayyor kommunikativ qoliqlarni taqdim etadi, bu esa ularning nutqni tez va samarali tarzda egallashlariga yordam beradi. Masalan, ingliz tilida How are you?. See you later kabi tayyor iboralar yoki o’zbek tilida xayrli tong, rahmat kabi birliklar til o’zlashtirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

R. Gibbs esa idiomlarni kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan tahlil qilib, shunday xulosaga keladi: “idiomlarning ko’p qismi insonning tajribiy va konseptual metaforalariga tayangan holda shakllanadi” . Shuni ta’kidlash lozimki, Gibbsning yondashuvi frazeologizmlarning kognitiv asoslarini yoritib, ularni inson tafakkurining metaforik xarakteri bilan bog’lash imkonini beradi. Masalan, ingliz tilidagi to grasp an idea (“g’oyani tutmoq”) yoki o’zbek tilidagi fikrni ilg’amoq iboralar inson tajribasiga tayangan metaforik asos bilan bog’langan. Demakki, Gibbsning tadqiqotlari frazeologizmlarni inson tafakkurining metaforik xarakteri bilan bog’liq holda o’rganishga keng yo’l ochadi.

Shuningdek, Z. Kövecses, F. Boers, S. Granger va H. Burger kabi olimlar frazeologizmlarni semantik va madaniy jihatdan tadqiq etib, “frazeologik birliklarning xalqaro miqyosda yagona nazariy asosda o’rganilishi zarurligini” ta’kidlaganlar .Shu nuqtai nazardan qaralganda, ularning

ishlari frazeologiyaning lingvokulturologik jihatlarini ochib beradi va frazeologizmlarni turli madaniyatlar doirasida qiyosiy o'rganishga keng imkoniyat yaratadi. Masalan, ingliz tilidagi *time is money* va o'zbek tilidagi *vaqt oltindan qadrl*i iboralari semantik jihatdan yaqin, ammo ular ifodalagan madaniy qadriyatlarda milliy xususiyat seziladi.

Frazeologik birliklarning xalqaro tadqiqotlarda yoritilishi ularni o'qitish metodikasida ham qo'llash imkonini yaratdi. Masalan, F. Boers va S. Lindstromberg ilmiy tajribalari natijalarida shunday xulosaga kelishadi: "idiomlarni o'rgatishda ularning metaforik asoslarini ko'rsatish samaradorlikni oshiradi". E'tiborlisi shundaki, ushbu natija frazeologizmlarni o'qitishda zamonaviy metodik yondashuvlarni joriy etishga ilmiy asos bo'lib, til o'rganuvchilarga idiomlarni tezroq o'zlashtirish va ularni faol nutqda qo'llash imkonini beradi.

A.V. Kunin ingliz tilidagi frazeologiyani keng o'rganib, "frazeologik birliklarning semantik, grammatik va pragmatik xususiyatlarini" yoritgan hamda "Frazeologik birliklar lug'ati"ni tuzish orqali soha rivojiga katta amaliy hissa qo'shgan. Shuni ta'kidlash joizki, Kuninning lug'atshunoslikka oid ishlari frazeologiyani amaliy qo'llanma darajasiga olib chiqqan va uni o'qitish hamda tadqiq etishda muhim metodik manba bo'lib xizmat qilgan. Masalan, o'zbek tilida *hordiq chiqarmoq* yoki ingliz tilida *take a rest* kabi birikmalarni frazeologik qo'shilma sifatida izohlashda Kunin yaratgan tizimdan foydalanish mumkin.

V.N. Teliya esa frazeologiyani lingvokulturologik nuqtai nazardan tahlil qilib, shunday ta'kidlaydi: "frazeologizmlar xalqning mentaliteti, qadriyatlari va dunyoqarashini ifodalaydigan muhim lingvokultural birliklardir". Shubhasiz, Teliyaning yondashuvi frazeologiyani madaniyat va til integratsiyasi nuqtai nazaridan o'rganishga yo'l ochgan bo'lib, u zamonaviy lingvokulturologik tadqiqotlar uchun nazariy asos yaratdi. Masalan, o'zbek tilidagi *qovushtirmoq* iborasi "bekor o'tirish" ma'nosini bildirsa, ingliz tilidagi *to twiddle one's thumbs* iborasi ham xuddi shu ma'noni anglatadi. Har ikkisi ham xalq tafakkurida "harakatsizlik" ramzi sifatida qaraladi.

Shuningdek, D. Dobrovol'skij va A. Baranov frazeologizmlarning metaforik asoslarini ochib berib, shunday xulosaga keladilar: "rus tilidagi idiomalar semantik motivatsiyaga ega bo'lib, ular kognitiv tilshunoslik doirasida tushuntirilishi mumkin". Bu yondashuv frazeologizmlarning chuqurroq kognitiv ildizlarini ko'rsatadi va ularni xalq tafakkuri hamda metaforik dunyoqarash bilan bog'laydi. Masalan, rus tilidagi *держат язык за зубами* va o'zbek tilidagi *tilini tiymoq* iboralari "sirlash" konseptini metaforik tarzda ifodalaydi.

A.M. Babkin frazeologik birliklarni xalq og'zaki ijodi bilan bog'lab, ularning tarixiy ildizlarini tadqiq qilgan. U "frazeologizmlarning kelib chiqishi ko'pincha xalq ertaklari, afsonalari va maqollariga borib taqaladi" deya ta'kidlagan. Bu yondashuv frazeologiyaning etnolingvistik asoslarini ochib beradi; V.P. Jukov esa shunday deydi: "frazeologizmlarni izohlashda ularni

semantik guruhlarga ajratish asosiy metod hisoblanadi”. Shu bois, bu qarashlar frazeologiyaning tarixiy ildizlarini yoritish va semantik mezon asosida tizimlashtirishga xizmat qiladi. Biroq ular pragmatik va kognitiv omillarni to‘liq qamrab olmaydi. Bu metod orqali frazeologizmlar mazmuniga qarab guruhlanadi: masalan, hissiy holatni ifodalovchi frazeologizmlar (yuragi orqasiga tortdi), ijtimoiy hodisalarni ifodalovchi frazeologizmlar (boshini qovushtirmoq), axloqiy qadriyatlarni aks ettiruvchi frazeologizmlar (ko‘nglini qora qilmoq).

Rus tilshunoslari frazeologiyani tizimli va nazariy jihatdan chuqur o‘rganib, uni mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllantirishda katta hissa qo‘shdilar. Ularning ishlari o‘zbek frazeologiyasining shakllanishi va rivojlanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi.

A.D. Rayxshteyn frazeologiyani zamonaviy lingvistika yondashuvlari bilan uyg‘unlashtirib, “frazeologizmlarni umumiy til tizimi tarkibida ko‘rib chiqish lozim” degan xulosaga keladi; S.N. Ivanov esa: “frazeologiya rus tilining tarkibiy qismi sifatida alohida bo‘lim darajasida o‘rganilishi zarur” deb ta’kidlaydi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, frazeologiyani mustaqil bo‘lim sifatida o‘rganish zarur bo‘lsa-da, uni umumiy til tizimidan ajratib qo‘yish mumkin emas. E’tiborlisi shundaki, frazeologiyaning mustaqilligi va integralligi bir-birini to‘ldiruvchi tamoyillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, D. Dobrovol’skiy o‘zining “Phraseology and Culture” asarida shunday fikr bildiradi: “frazeologik birliklarning ma’nosi ko‘pincha madaniy kontekstga tayangan holda shakllanadi va bu ularning xalqaro qiyosiy tadqiqida muhim mezon hisoblanadi”. Shuni alohida qayd etish lozimki, Dobrovol’skiyning bu yondashuvi frazeologiyani lingvokulturologik doirada talqin etishga, uning semantik boyligini milliy-madaniy kontekst bilan bog‘lashga imkon beradi.

Frazeologik birliklarning tipologiyasi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi. Ularning lug‘atshunoslik, tarjimashunoslik va lingvodidaktika kabi sohalaridagi qo‘llanishi frazeologiyani zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylantirgan.

Avvalo, lug‘atshunoslikda frazeologizmlarning izohlanishi muhim masala hisoblanadi. A.V. Kuninning frazeologik lug‘atlari bu borada katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular frazeologik birliklarning semantik, grammatik va pragmatik xususiyatlarini keng qamrovda yoritadi. Shuningdek, P. Cowie ingliz lug‘atlarida frazeologik birliklarni aks ettirish muammosini ko‘tarib, “frazeologik birliklarning semantik nozikliklarini to‘liq yoritish uchun maxsus frazeologik lug‘atlar zarur” deb ta’kidlaydi. Bu fikr shuni ko‘rsatadiki, umumiy lug‘atlar frazeologizmlarning ko‘p qirrali ma’nosini yetarli darajada ochib bera olmaydi.

Ikkinchidan, tarjimashunoslikda frazeologik birliklar bilan ishlash alohida metodologiyani talab qiladi. Chunki frazeologizmlarning ko‘pchiligi milliy-madaniy xususiyatlarga ega bo‘lib, ular so‘zma-so‘z tarjimada o‘z semantik qiymatini yo‘qotishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi

kick the bucket iborasini o'zbekchaga chelakni tepmoq deb tarjima qilish noto'g'ri bo'ladi; to'g'ri tarjimasi vafot etmoqdir. Shu sababli, frazeologizmlarning tarjimasida ularning semantik va madaniy konnotatsiyasini hisobga olish muhimdir.

Uchinchidan, lingvodidaktika sohasida frazeologik birliklarning o'qitilishi o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytirish, nutqni tabiiylashtirish va madaniy kompetensiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. F. Boers va S. Lindstromberg ilmiy tajribalarida idiomlarni metaforik asoslari bilan birga o'rgatish samaradorligi isbotlangan. Masalan, ingliz tilidagi spill the beans iborasini "sirni oshkor etish" ma'nosida tushuntirishda metaforik asosni ko'rsatish o'quvchilarga uni tezroq o'zlashtirishga yordam beradi. O'zbek tilida ham ko'nglini ochmoq iborasini o'rgatishda uning obrazli asosini izohlash samarali bo'ladi.

Shu tariqa, frazeologik birliklarning amaliy ahamiyati keng qamrovli bo'lib, ular tilshunoslikning nazariy rivojidan tashqari amaliy sohalarda ham samarali qo'llaniladi. Lug'atshunoslikda ularni tizimlashtirish, tarjimada to'g'ri ifodalash va ta'lim jarayonida o'rgatish frazeologiyaning dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

O'zbek tilshunosligida frazeologiya alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllanishi Sh. Rahmatullaev nomi bilan chambarchas bog'liq. U o'zining "Frazeologiya" nomli asarida shunday ta'kidlaydi: "frazeologik birliklarning turlari, semantik va grammatik xususiyatlari keng qamrovda tahlil qilinishi zarur". Bu yondashuv, nazarimizda, o'zbek frazeologiya maktabining shakllanishida poydevor vazifasini bajargan. Rahmatullaevning ishlari o'zbek frazeologiyasini mustaqil ilmiy soha sifatida tan olish va uni nazariy asoslashda muhim ahamiyat kasb etdi.

A. Mamatov o'z tadqiqotlarida shunday xulosaga keladi: "frazeologizmlar tarkibiy jihatdan o'zgaruvchan bo'lib, yangi frazeologik birliklar ham doimiy ravishda shakllanib boradi". Bu fikr frazemalarning dinamik tabiatini ochib beradi. Masalan, yangi ijtimoiy hodisalar asosida paydo bo'layotgan internetda ko'tarilmoq kabi iboralarni frazeologizm sifatida o'rganish mumkin. Ko'rinadiki, Mamatovning qarashlari frazeologizmlarni tirik til jarayonida shakllanib va rivojlanib boruvchi birliklar sifatida talqin qilishga asos yaratadi.

B. Yo'ldoshev esa frazeologizmlarning nutqdagi ahamiyatiga e'tibor qaratib, shunday deydi: "frazeologik birliklar nutqda ta'sirchanlik va ifodalilikni oshiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi". E'tiborlisi shundaki, Yo'ldoshevning bu yondashuvi frazeologizmlarning pragmatik vazifasini yoritishda muhimdir. Chunki frazeologizmlar faqat semantik yaxlitlik emas, balki tinglovchiga ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, eti suyagiga yopishgan yoki yuragi orqasiga tortdi iboralari oddiy so'zga nisbatan kuchliroq ta'sirchanlik uyg'otadi.

Q. Xakimov frazeologizmlarni lingvopragmatik nuqtai nazardan tadqiq qilib, shunday deydi: "frazeologik birliklar nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-madaniy birlik sifatida ham ko'rilishi zarur". Bu qarash, bizning nazarimizda, frazeologizmlarni milliy-madaniy

qadriyatlarning ifodachisi sifatida tahlil qilishga keng imkoniyat yaratadi. Shuningdek, Xakimovning ishlari frazeologiyaning tilshunoslik va madaniyatshunoslik chegarasidagi fanlararo xususiyatini ko'rsatib beradi. Masalan, o'zbek tilidagi ko'ngli qora iborasi va ingliz tilidagi black-hearted iborasi semantik jihatdan bir xil bo'lsa-da, ularning madaniy asoslari milliy tafakkur bilan bog'langan.

A.A. Abduazizov frazeologik birliklarni semantik va grammatik jihatdan tasniflab, ularning o'zbek tilidagi namunalari orqali nazariy asoslarini ishlab chiqqan. Olimning ta'kidlashicha: "frazeologizmlar tildagi boshqa birliklardan farqli ravishda ko'chma ma'no yaratish xususiyati bilan ajralib turadi". Qayd etish joizki, bu fikr frazeologizmlarni semantik ko'chish va obrazlilik fenomeni bilan bog'lashda muhim ahamiyatga ega. Abduazizovning yondashuvi frazeologiyani o'zbek tilshunosligida alohida ilmiy soha sifatida mustahkamlashga xizmat qilgan.

H. Jamolxonov frazeologik birliklarning nutqiy vazifasini o'rganib, shunday yozadi: "frazeologik birliklarning semantik-funksional xususiyatlari turli nutqiy vaziyatlarda ularning pragmatik yukini ochib beradi". Shuni ta'kidlash kerakki, bu yondashuv frazeologiyaning pragmatik imkoniyatlarini ko'rsatib, ularning real nutqiy jarayondagi ahamiyatini aniqlashga yordam beradi. Shu tariqa, frazeologizmlar faqat leksik-semantik hodisa emas, balki kommunikativ jarayonning samaradorligini oshiruvchi vosita sifatida ham namoyon bo'ladi.

M. Shukurov esa frazeologik birliklarni tipologik jihatdan tahlil qilib, "o'zbek tilidagi frazeologizmlarni boshqa turkiy tillar frazeologizmlari bilan qiyosiy o'rganish lozim" deya ta'kidlaydi. Bundan ko'rinadiki, bu qarash o'zbek frazeologiyasining umumturkiy tilshunoslikdagi o'rnini belgilash va uning xususiyatlarini kengroq kontekstda yoritishda muhimdir. Masalan, o'zbek tilidagi ko'ngli tog'dek iborasi qozoq tilidagi kōnili tauiday iborasiga juda yaqin bo'lib, umumturkiy ildizni ko'rsatadi.

Qiyosiy tadqiqotlar milliy frazeologiyaning o'ziga xos tomonlarini ajratib ko'rsatishga xizmat qiladi. Shuningdek, o'zbek frazeologiyasi bo'yicha keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda "frazeologizmlar lingvokulturologik, psixolingvistik va tarjimashunoslik jihatlaridan ham o'rganilishi zarur" degan qarash ilgari surilgan. E'tiborli jihati shundaki, bu yo'nalishlar frazeologiyani fanlararo darajaga olib chiqib, uni til, madaniyat, tafakkur va tarjima jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda o'rganishga imkon bermiqda. Bu esa o'zbek frazeologiyasining zamonaviy tilshunoslikdagi dolzarbligini yanada oshiradi.

Shuningdek, frazeologiyaning xalqaro tadqiqotlarida Sharq tilshunosligida erishilgan yutuqlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Xitoy tilshunosligida frazeologizmlar milliy madaniyatning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Olimlarning ta'kidlashicha: "chengyu deb ataluvchi to'rt iyeroglifli barqaror ifodalar qadimiy yozma manbalarda keng qo'llangan bo'lib, ularning ma'nosi ko'pincha tarixiy voqealar, afsonalar yoki falsafiy ta'limotlarga tayangan holda

shakllanadi”. Shuni ta’kidlash kerakki, chengyular xitoy xalqining madaniy-milliy tafakkurini ifodalash bilan birga, frazeologizmlarning qadimiy tarixiy asoslarini ham ko’rsatadi.

Xitoy frazeologiyasida maqol va hikmatli so’zlar ham muhim o’rin tutadi. Olimlar qayd etganidek: “ular xalq og’zaki ijodining mahsuli bo’lib, jamiyatning axloqiy qadriyatlarini ifodalashda katta ahamiyat kasb etadi”. E’tiborli jihati shundaki, bu turdagi frazeologik birliklar milliy-madaniy qadriyatlarni saqlash va avloddan-avlodga yetkazishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Qiyosiy tadqiqotlar esa shuni ko’rsatadiki: “xitoy frazeologiyasining ingliz va o’zbek tillaridagi frazeologik birliklar bilan o’xshashliklari obrazlilik, turg’unlik va semantik yaxlitlikda namoyon bo’ladi, farqlari esa madaniy mazmun va tarixiy asoslarda ko’zga tashlanadi”. Shu bois, shundan kelib chiqadiki, frazeologizmlar har bir millat tilida o’ziga xos tarzda shakllansa-da, ularning asosiy tipologik belgilari umumiylik kasb etadi.

Xalqaro tadqiqotlar natijalari frazeologiyani bugungi kunda tilshunoslikning global miqyosda o’rganilayotgan sohasi sifatida tasdiqlaydi. Turli mamlakat olimlari ta’kidlaganidek, frazeologik birliklarning tipologiyasi, semantikasi va pragmatik xususiyatlari izchil tahlillar natijasida yanada chuqurroq yoritilmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Xitoy va boshqa tillar misolida keltirilgan tadqiqotlar ingliz va o’zbek tillaridagi sodda qolipli frazeologizmlarning o’rganilishiga ham metodologik asos yaratadi.

Frazeologik birliklarning tipologiyasi masalasida umumiy xulosalar shuni ko’rsatadiki, ular turli mezonlarga ko’ra tasnif qilinadi. Fillmore o’z tadqiqotida “semantik mezon frazeologizmlarning ma’nosining tarkibiy qismlaridan kelib chiqish darajasini, grammatik mezon tarkibiy qismlarning sintaktik mustaqillik darajasini, pragmatik mezon ularning nutqiy vazifasi va kommunikativ yukini, lingvokulturologik mezon esa milliy-madaniy komponentlarni belgilaydi” deya ta’kidlaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ushbu mezonlar frazeologizmlarni kompleks holda tahlil qilish imkonini beradi va ularning mohiyatini chuqurroq yoritadi.

G’arb tilshunosligida asosan “semantik va pragmatik yondashuvlar ustuvorlik qilgan bo’lsa, rus tilshunosligida tizimlilik va tasnif masalalari yetakchi bo’lgan, o’zbek tilshunosligida esa milliy-madaniy komponentlarga alohida urg’u berilgan”. Qayd etish joizki, bu farqlarga qaramay, barcha yondashuvlarning umumiy maqsadi frazeologizmlarning til tizimidagi o’rnini aniqlash va ularning funksional xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan.

Zamonaviy tilshunoslikda esa frazeologik tadqiqotlar tobora fanlararo tus olib, “semasiologiya, pragmatika, lingvokulturologiya va kognitiv lingvistika bilan uzviy aloqada olib borilmoqda”. Bundan kelib chiqadiki, frazeologiya endilikda til, tafakkur va madaniyatni birlashtiruvchi integrativ yo’nalishga aylangan.

Frazeologizmlarning xalqaro miqyosda tadqiq qilinishi natijasida ularni o'qitish metodikasida ham yangi yondashuvlar shakllandi. Xususan, ingliz tili o'qitish metodikasida "frazelogik birliklar lug'at boyligini kengaytirish va tabiiy nutq hosil qilishning muhim manbai sifatida qaraladi".

F. Boers va S. Lindstromberg tadqiqotlarida esa shunday xulosa beriladi: "idiomlarni o'qitishda metaforik asoslarni ko'rsatish o'quvchilarning ularni tezroq va samaraliroq o'zlashtirishiga yordam beradi". Shu nuqtai nazardan qaraganda, frazeologik birliklar o'qitish jarayonida so'z boyligini kengaytirish bilan birga, nutqiy tabiiylikni ta'minlovchi samarali vosita sifatida ham alohida o'rin tutadi. Masalan, *spill the beans* iborasining metaforik asosini tushuntirish orqali o'quvchilar uni tezroq o'zlashtiradilar. E'tiborlisi shundaki, bu yondashuv frazeologik birliklarni nafaqat tilning leksik boyligi, balki o'quvchilarning madaniy kompetensiyasini rivojlantirish vositasi sifatida ham ko'rsatadi.

Shuningdek, tayyor qolipli birliklarning psixolingvistik tadqiqotlari ham ularni o'qitish jarayonida qo'llash samaradorligini ko'rsatmoqda. A. Wray va boshqa tadqiqotchilar ta'kidlaganidek: "tayyor qolipli birliklar o'quvchilarga nutqni tez va to'liq ifodalashda yordam beradi".

Qayd etish joizki, bu yondashuv, ayniqsa, chet tilini o'rganuvchilar uchun muhim bo'lib, ularga nutqni tezkor va mazmunli tarzda qurishda imkoniyat yaratadi.

Nutqiy faoliyatda frazeologizmlarning qo'llanishi o'quvchining madaniy kompetensiyasini ham shakllantiradi. Olimlarning fikricha: "frazelogizmlar nafaqat semantik, balki madaniy yuklamaga ham ega bo'lib, ularni o'rgatish jarayonida til va madaniyatning o'zaro aloqasiga alohida e'tibor qaratish lozim".

Bundan kelib chiqadiki, frazeologizmlarni o'qitishda lingvokulturologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular o'quvchining til bilimini chuqurlashtirish bilan birga, madaniy savodxonligini ham oshiradi.

Frazeologik birliklarning tadqiqi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Olimlar ta'kidlaganidek: "frazelogizmlarni tarjima jarayonida to'g'ri qo'llash, lug'atshunoslikda izohlash va o'quv jarayonida samarali o'rgatish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir". Shuni ta'kidlash kerakki, frazeologizmlarning tipologik xususiyatlarini aniqlash va ularni tizimli tahlil qilish tarjimashunoslik, lingvodidaktika va madaniyatshunoslik kabi yo'nalishlarda ham metodologik asos yaratadi.

Qiyosiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki: "ingliz, rus, o'zbek va xitoy tillaridagi frazeologik birliklar umumiy jihatlarga ega bo'lish bilan birga, milliy-madaniy farqlarga ham ega. Bu farqlar asosan semantik motivatsiya, obrazlilik va qo'llanish kontekstida yaqqol ko'rinadi". E'tiborli jihati shundaki, frazeologizmlarni qiyosiy o'rganish nafaqat tilshunoslik nazariyasi uchun, balki til

o'rganuvchilarning madaniyatlararo kompetensiyasini shakllantirish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Frazeologiyaning xalqaro miqyosdagi tadqiqotlari haqida shunday fikr bildiriladi: "frazelogiya mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida yanada rivojlanmoqda va lingvistik tadqiqotlarda tilning semantik, pragmatik va madaniy qatlamlarini o'rganishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda". Bu holat shuni ko'rsatadiki, frazeologiya bugungi kunda tilshunoslik fanining alohida sohasi sifatida shakllangan bo'lib, uni turli ilmiy yo'nalishlarda qo'llash imkoniyatlari yanada kengaymoqda.

Frazeologik birliklar tildagi eng muhim leksik-semantik qatlamlardan biri sifatida turli lingvistik, pragmatik va madaniy jihatlarni o'zida mujassam etadi. Ularning tipologiyasini o'rganish jarayonida rus, yevropa, amerika va o'zbek tilshunosligida turli nazariy yondashuvlar shakllangan.

Yevropa va AQSh tilshunosligida – semantik va pragmatik omillarga asoslangan tasniflar, korpus lingvistikasiga tayangan tahlillar va formulaik birliklarning psixolingvistik xususiyatlari keng yoritilgan.

Rus tilshunosligida – tizimlilik, grammatik va semantik mezonlarga asoslangan klassik tasniflar hamda lingvokulturologik yondashuvlar yetakchilik qilgan.

O'zbek tilshunosligida – milliy-madaniy komponentlarga e'tibor qaratilib, frazeologizmlarning lingvopragmatik, semantik va funksional jihatlari tadqiq etilgan.

Xitoy tilshunosligida – frazeologizmlarning tarixiy-madaniy asoslari va ularning yozma manbalardagi o'rni keng o'rganilgan.

Frazeologiyaning hozirgi tadqiqotlari fanlararo xarakter kasb etib, u semasiologiya, kognitiv lingvistika, tarjimashunoslik va lingvodidaktika bilan uzviy bog'langan. Shu bois, frazeologik birliklarning tipologiyasini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Frazeologik birliklarni tipologik jihatdan tasniflashda semantik mezon yetakchi o'rin tutadi. Bu yondashuvda frazeologizmlar tarkibiy qismlarining umumiy ma'noga qanchalik ta'sir etishi asosiy belgi hisoblanadi. Rus tilshunosligida frazeologiyaning nazariy asoslarini shakllantirishda V.V. Vinogradov, A.V. Kunin, N.N. Amosova va V.N. Teliyaning xizmatlari beqiyosdir. V.V. Vinogradov ta'kidlaganidek: "frazelogik birliklarni uch turga ajratish mumkin: frazeologik chatishmalar, frazeologik butunliklar va frazeologik qo'shilmalar".

Frazeologik chatishmalar — bu mutlaqo nomotivlangan iboralar bo'lib, ularning umumiy ma'nosi tarkibiy qismlardan kelib chiqmaydi. Masalan, ingliz tilidagi kick the bucket iborasi "o'lish" ma'nosini anglatadi, o'zbek tilidagi boshini egmoq iborasi esa "taslim bo'lish" yoki "itoat

etish” mazmunini beradi. Har ikki holatda ham tarkibiy soʻzlarning lugʻaviy maʼnosi bilan frazeologik maʼno oʻrtasida hech qanday bogʻlanish yoʻq.

Frazeologik butunliklar — bular semantik jihatdan qisman motivlangan iboralar boʻlib, umumiy koʻchma maʼno obrazli tarzda tarkibiy qismlardan kelib chiqadi. Masalan, oʻzbek tilidagi yuragi togʻdek iborasi “qatʼiyatli, jasur” degan maʼnoni bildiradi, ingliz tilidagi heart of stone iborasi esa “rahmsiz, bagʻri tosh” maʼnosini beradi. Har ikkala ibora tarkibida maʼno metaforik tarzda motivatsiyalangan.

Frazeologik qoʻshilmalar esa tarkibiy qismlarning maʼnosi umumiy mazmunda muhim rol oʻynaydigan iboralaridir. Masalan, hordiq chiqarmoq yoki ingliz tilidagi make a decision iboralarida tarkibiy soʻzlarning lugʻaviy maʼnosi frazeologik maʼnoni shakllantirishda faol ishtirok etadi.

Tahlil va natijalar. Vinogradov tipologiyasi frazeologizmlarning semantik yaxlitligini tushuntirishda juda samarali hisoblanadi. Chunki u tildagi barqaror iboralarining semantik motivatsiya darajasini aniq mezonlar asosida koʻrsatadi. Shu bilan birga, bu tasnif qiyosiy tadqiqotlarda ham katta ahamiyatga ega. Masalan, oʻzbek, ingliz va rus tillaridan olingan misollar shuni koʻrsatadiki, har bir tilda frazeologik chatishmalar, butunliklar va qoʻshilmalarga oid iboralar mavjud boʻlib, ularning umumiy tipologiyasi xalqaro miqyosda tadqiqot olib borishga imkon yaratadi.

Frazeologik birliklarning tipologiyasini belgilashda grammatik mezon ham muhim oʻrin tutadi. Bu yondashuvda frazeologizmlar tarkibiy qismlarining sintaktik mustaqilligi, ularning oʻzgaruvchanlik darajasi va umumiy grammatik tuzilma ichida qanday vazifa bajarishi tahlil qilinadi.

Grammatik mezon asosida frazeologizmlarni bir necha guruhlariga ajratish mumkin:

1. Sintaktik jihatdan barqaror frazeologizmlar.

Bunday iboralarda tarkibiy qismlar deyarli oʻzgarmaydi va ularning grammatik shakli qatʼiy belgilangan boʻladi. Masalan, ingliz tilidagi by and large, oʻzbek tilidagi ogʻzi qulogʻida iborasi. Bu iboralarda soʻz tartibini oʻzgartirish yoki bir qismini almashtirish mumkin emas.

2. Qisman barqaror frazeologizmlar.

Ularning tarkibida ayrim grammatik oʻzgarishlar mumkin, ammo umumiy mazmun saqlanib qoladi. Masalan, oʻzbek tilida koʻngli yorishmoq – koʻnglim yorishdi, ingliz tilida make a decision – made a decision. Bu holatda grammatik zamon yoki shaxs oʻzgaradi, lekin frazeologik birlikning maʼnosi oʻzgarishsiz qoladi.

3. Sintaktik jihatdan erkinroq frazeologizmlar.

Ular grammatik jihatdan erkinroq bo'lib, tarkibiy qismlarining joylashuvi yoki ayrim grammatik shakllar almashtirilishi mumkin. Masalan, ingliz tilida lose one's temper – he lost his temper, she may lose her temper; o'zbek tilida hordiq chiqarmoq – hordiq chiqarishimiz kerak.

Tadqiqotimiz nuqtayi nazaridan, grammatik mezon frazeologik birliklarning tildagi formal barqarorligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Chunki frazeologizmlar nafaqat semantik, balki grammatik tizimning ham muhim qismi bo'lib, ular barqaror sintaktik qoliplar sifatida til tizimida mustahkam o'rnashadi.

Shu bilan birga, grammatik mezon frazeologizmlarning tipologiyasini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Masalan, o'zbek tilidagi eti suyagiga yopishgan iborasida so'zlarning grammatik shakli o'zgarishi mumkin emas, aks holda ibora frazeologik qiymatini yo'qotadi. Ingliz tilidagi spill the beans iborasi ham grammatik jihatdan barqaror bo'lib, uning tarkibiy qismlarini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi (spill the bean shaklida ishlatilmaydi).

Frazeologik birliklarning tipologiyasini belgilashda kontekstual mezon ham muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv asosan N.N. Amosova nomi bilan bog'liq bo'lib, u turg'un birikmalarni "doimiy kontekst birliklari" sifatida izohlagan. Olimaning fikricha: "frazeologizmlarning semantik yaxlitligini tushuntirishda kontekst hal qiluvchi rol o'ynaydi".

Amosova nazariyasiga ko'ra, frazeologizmlar erkin so'z birikmalaridan farqli ravishda qat'iy kontekstga ega bo'ladi va ularning ma'nosi nutqiy vaziyatdan qat'i nazar, barqaror qoladi. Masalan, ingliz tilidagi red tape iborasi har qanday nutqiy vaziyatda "byurokratiya" ma'nosini bildiradi. O'zbek tilida esa oq yo'l tilamoq iborasi "yaxshi tilak bildirish" ma'nosini berib, kontekstdan tashqarida boshqa ma'noda qo'llanilmaydi.

Shu jihatdan qaralganda, Amosovaning kontekst nazariyasi frazeologizmlarni erkin birikmalardan ajratishda asosiy metodologik vosita bo'lib xizmat qiladi. Chunki erkin birikmalarda kontekst o'zgarishi mumkin, frazeologik birliklarda esa kontekst doimiy va qat'iy qoladi.

Nazarimizda, Amosovaning yondashuvi frazeologiyaning pragmatik qirralarini ochishda ham samarali bo'ldi. Chunki doimiy kontekst nafaqat semantik, balki kommunikativ vazifani ham bajaradi. Misol uchun, to break the ice iborasi doimiy ravishda "suhbatni boshlash, muhitni yumshatish" ma'nosida qo'llaniladi. O'zbek tilida esa og'zi qulog'ida iborasi har qanday vaziyatda "nihoyatda quvonchli holat"ni bildiradi.

Shu tariqa, Amosova kontekstual yondashuvi frazeologik birliklarni semantik va pragmatik jihatdan chuqurroq tahlil qilish imkonini berdi.

Frazeologik birliklarning tipologiyasida pragmatik mezon ham alohida o'rin tutadi. Bu yondashuvda frazeologizmlar nafaqat semantik va grammatik birlik sifatida, balki kommunikativ jarayonning ta'sirchan vositasi sifatida baholanadi. Frazeologizmlar nutqda obrazlilik,

emotsionallik va ifodalilikni oshiradi, shu sababli ularning pragmatik vazifasi alohida tahlil qilinadi.

O'zbek tilshunosligida B. Yo'ldoshev frazeologizmlarning kommunikativ xususiyatlariga katta e'tibor qaratib, shunday deydi: "fazeologik birliklar nutqda ta'sirchanlik va ifodalilikni ta'minlovchi vosita sifatida xizmat qiladi". Masalan, eti suyagiga yopishgan, og'zi qulog'ida kabi iboralar oddiy so'zlardan ko'ra kuchliroq emotsional ta'sir uyg'otadi. Ingliz tilida ham to be over the moon (nihoyatda xursand bo'lish) yoki to hit the nail on the head (aniq topmoq) iboralari pragmatik jihatdan nutqni kuchaytiruvchi birliklardir.

H. Jamolxonov ham frazeologik birliklarning semantik-funksional xususiyatlarini o'rgangan holda ta'kidlaydi: "fazeologik birliklarning turli nutqiy vaziyatlarda qo'llanishi ularning pragmatik yukini ochib beradi". Bu yondashuv shuni ko'rsatadiki, frazeologizmlar real kommunikativ jarayonda tinglovchiga bevosita ta'sir ko'rsatish uchun ishlatiladi. Masalan, ko'ngli tog'dek iborasi tinglovchida ijobiy taassurot uyg'otsa, ko'ngli qora iborasi salbiy emotsional reaksiya tug'diradi.

Q. Xakimov frazeologizmlarni lingvopragmatik nuqtai nazardan tadqiq etib, shunday xulosaga keladi: "fazeologik birliklar faqat lingvistik birlik emas, balki ijtimoiy-madaniy belgilarni ham aks ettiradi". Bu fikr shuni ko'rsatadiki, frazeologizmlar orqali nafaqat til, balki jamiyatning axloqiy qadriyatlari, madaniy stereotiplari va dunyoqarashi ham ifodalanadi. Masalan, o'zbek tilidagi boshini qovushtirmoq iborasi ijtimoiy qadriyat – "oila qurish" tushunchasini ifodalaydi, ingliz tilidagi to tie the knot iborasi ham xuddi shu pragmatik vazifani bajaradi.

Shunday qilib, pragmatik mezon frazeologik birliklarning faqat ma'no tizimidagi emas, balki ijtimoiy-madaniy kontekstdagi funksional yukini ham ochib beradi. Ular nutqiy jarayonda emotsional ta'sir ko'rsatish, muloqotni kuchaytirish va milliy mentalitetni ifodalash kabi muhim vazifalarni bajaradi.

Fazeologik birliklarning tipologiyasini aniqlashda kognitiv mezon ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv frazeologizmlarni inson tafakkurining metaforik xarakteri bilan bog'laydi. R. Gibbs ta'kidlaganidek: "idiomlarning ko'pchiligi insonning tajribiy va konseptual metaforalariga tayangan holda shakllanadi". Xuddi shuningdek, J. Lakoff va M. Johnsonning konseptual metafora nazariyasi frazeologizmlarni inson ongida mavjud bo'lgan konseptual tuzilmalar asosida tushuntiradi.

Masalan, ingliz tilidagi time flies iborasi vaqtning "uchuvchi" narsa sifatida konseptual metaforasi bilan bog'liq; o'zbek tilidagi ko'ngli qora iborasi esa insonning salbiy his-tuyg'ularini rang metaforasi orqali ifodalaydi.

Bizning fikrimizcha, kognitiv yondashuv frazeologik birliklarni faqat tildagi barqaror iboralar sifatida emas, balki inson tafakkuri va tajribasining ifodasi sifatida ko'rishga imkon beradi. Shu sababli, kognitiv mezon frazeologiyaning tipologiyasini yanada chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Frazeologizmlarning tipologiyasini o'rganishda psixolingvistik mezon ham alohida o'rin tutadi. Bu yondashuv A. Wray nomi bilan bog'liq bo'lib, u frazeologizmlarni "tayyor qolipli birliklar" (formulaic sequences) sifatida talqin qiladi. Olimning fikricha: "tayyor qolipli birliklar til o'rganish jarayonini tezlashtiruvchi vosita sifatida qaralishi mumkin".

Masalan, ingliz tilida keng qo'llaniladigan at the end of the day iborasi yoki o'zbek tilidagi to'ydan keyin gapirmoq iborasi o'quvchilarga nutqda tezkorlik va soddalik beradi. Psixolingvistik yondashuvga ko'ra, frazeologizmlar nutqda tezkor fikr almashish imkonini beradi, chunki ular tayyor qolip sifatida ongda saqlanadi va qayta ishlov talab qilmaydi.

Shu nuqtayi nazardan qaralganda, psixolingvistik mezon frazeologizmlarning til o'zlashtirish, nutqiy avtomatizm va kommunikativ samaradorlikdagi rolini yoritadi. U chet tillarini o'rganishda ham, ona tilidagi nutqni rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Frazeologik birliklarning tipologiyasini belgilashda lingvokulturologik mezon ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki frazeologizmlar nafaqat til tizimining semantik yoki grammatik birligi, balki xalqning mentaliteti, qadriyatlari va dunyoqarashini ifodalovchi lingvokultural birliklar sifatida ham qaraladi.

Rus tilshunosligida V.N. Teliya frazeologizmlarni lingvokulturologik nuqtai nazardan tahlil qilib, shunday deydi: "frazeologizmlar xalqning mentaliteti, qadriyatlari va dunyoqarashini ifodalaydigan muhim lingvokultural birliklardir". Masalan, rus tilidagi бить баклуши iborasi (bekor yurmoq) xalq hayotidagi mehnatga munosabatni, o'zbek tilidagi qo'lini qovushtirmoq iborasi esa harakatsizlikni ifodalaydi. Bu iboralar madaniy qadriyatlar bilan bevosita bog'liq.

G'arb tilshunosligida Z. Ko'vecses, F. Boers, S. Granger kabi olimlar frazeologizmlarning metaforik va madaniy asoslarini keng tadqiq etganlar. Masalan, Ko'vecses ta'kidlaganidek, "frazeologik birliklar ko'pincha konseptual metafora va milliy-madaniy tajribaga tayangan holda shakllanadi". Ingliz tilidagi time is money iborasi G'arb jamiyatidagi vaqtni moddiy qadriyat sifatida qabul qilish an'anasini ko'rsatadi, o'zbek tilidagi vaqt oltindan aziz iborasi esa xuddi shu mentalitetni sharqona ifodalaydi.

Bizningcha, lingvokulturologik mezon frazeologizmlarning xalq tafakkuri va madaniyatidagi o'rnini chuqurroq yoritish imkonini beradi. Chunki frazeologizmlar orqali jamiyatning qadriyatlari, an'analari, stereotiplari va dunyoqarashi til tizimida mustahkamlanadi. Bu mezon, shuningdek, qiyosiy tadqiqotlar uchun ham muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan,

o'zbek tilidagi ko'ngli oq iborasi, ingliz tilidagi white heart iboralari bir-biridan mustaqil shakllangan bo'lsa-da, umumiy madaniy semantika – “pok qalb” konseptini ifodalaydi.

Frazeologik birliklarning tipologiyasi: turli yondashuvlar qiyosiy jadvali

Mezon / Olim	Yondashuvi	Tipologiya / Turlari	Misollar	Izoh
Semantik (V.V. Vinogradov)	Semantik motivatsiya darajasiga asoslanadi	1) Frazeologik chatishmalar 2) Frazeologik butunliklar 3) Frazeologik qo'shimmalar	<i>kick the bucket</i> (EN), <i>boshini egmoq</i> (UZ), <i>бумь баклуши</i> (RU)	Eng ko'p qo'llanilgan klassik tasnif, motivatsiya darajasini ko'rsatadi
Kontekstual (N.N. Amosova)	Doimiy kontekst nazariyasi	Frazeologizmlar – erkin birikmalardan farqli, qat'iy kontekst birliklari	<i>red tape</i> (EN), <i>oq yo'l tilamoq</i> (UZ)	Ma'no kontekstdan qat'i nazar barqaror bo'ladi
Grammatik (A.V. Kunin)	Grammatik va sintaktik barqarorlik asosida	Frazeologizmlar tarkibiy qismlari o'zgarmaydi yoki o'zgina o'zgaradi	<i>spill the beans</i> (EN), <i>eti suyagiga yopishgan</i> (UZ)	Frazeologizmlarni lug'atshunoslik nuqtai nazaridan ham yoritgan
Pragmatik (B. Yo'ldoshev, H. Jamolxonov, Q. Xakimov)	Nutqiy vazifa va kommunikativ yuklama asosida	Ta'sirchanlik, ifodalilik, emotsionallikni oshiruvchi birliklar	<i>to break the ice</i> (EN), <i>og'zi qulog'ida</i> (UZ)	Frazeologizmlar pragmatik vazifa bajarib, tinglovchiga ta'sir ko'rsatadi
Lingvokulturologik (V.N. Teliya, Z. Kövecses)	Milliy-madaniy qadriyatlarni ifodalash	Frazeologizmlar xalq mentaliteti va dunyoqarashini aks ettiruvchi birliklar	<i>time is money</i> (EN), <i>vaqt oltindan aziz</i> (UZ),	Lingvokultural yondashuv xalq tafakkurini yoritadi
Kognitiv (R. Gibbs, Lakoff & Johnson)	Konseptual metafora nazariyasiga asoslanadi	Frazeologizmlar inson tafakkurining metaforik asosiga bog'lanadi	<i>to grasp an idea</i> (EN), <i>ko'ngli qora</i> (UZ)	Kognitiv yondashuv frazeologizmlarni tafakkur mexanizmlari bilan bog'laydi
Psixolingvistik (A. Wray)	Til o'rganish va nutqni tezlashtirishdagi roli	Tayyor qolipli birliklar (formulaic sequences)	<i>at the end of the day</i> (EN), <i>to 'ydan keyin gapirmoq</i> (UZ)	Til o'zlashtirish jarayonida tayyor qoliplar muhim ahamiyatga ega

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, frazeologik birliklarni tipologik jihatdan o'rganishda turli olimlar turli mezonlarga e'tibor qaratganlar. Masalan, Vinogradovning semantik tasnifi motivatsiya darajasini asos qilib olgan bo'lsa, Amosova kontekstga, Kunin grammatik barqarorlikka, Yo'ldoshev va Jamolxonov pragmatik vazifaga urg'u bergan. G'arb tilshunosligida Gibbs va Lakoff frazeologizmlarning kognitiv asoslarini, Wray esa ularning psixolingvistik jihatlarini tahlil qilgan. Teliya va Kövecses kabi olimlar esa lingvokulturologik yondashuvni ilgari surib, frazeologizmlarni xalq mentaliteti va madaniy qadriyatlari bilan bog'lab o'rganish zarurligini ko'rsatganlar.

Xulosa va takliflar. Qisqa qilib aytganda, frazeologik birliklarning tipologiyasi ko'p qirrali bo'lib, har bir yondashuv ularning muayyan xususiyatini yoritadi. Bunday xilma-xillik, bir tomondan, frazeologiyaning nazariy asoslarini boyitsa, ikkinchi tomondan, qiyosiy tadqiqotlar uchun keng imkoniyat yaratadi. Aynan shu nuqtadan kelib chiqib, frazeologizmlarning amaliy ahamiyatini ham alohida ko'rib chiqish zarur.

Yuqorida keltirilgan ilmiy mulohazalar shuni ko'rsatadiki, frazeologik birliklar til tizimining murakkab, ko'p qirrali va ko'p qatlamli hodisasi bo'lib, ularni o'rganish jarayonida turli nazariy yondashuvlardan foydalaniladi. Har bir ilmiy maktab va tadqiqotchi frazeologiyaning ma'lum bir jihatiga e'tibor qaratgan va shu orqali umumiy nazariyaning rivojlanishiga hissa qo'shgan.

Avvalo, semantik mezon asosida Vinogradov tomonidan ishlab chiqilgan tasnif frazeologik birliklarning motivatsiya darajasini aniqlash imkonini berdi. Bu tasnif keyinchalik boshqa tilshunolar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Grammatik mezon esa frazeologizmlarning sintaktik barqarorligi va tarkibiy qismlarining o'zgaruvchanlik darajasini ko'rsatdi. Kontekstual mezon Amosova tomonidan ilgari surilib, frazeologizmlarning qat'iy kontekstga ega bo'lishi ularni erkin birikmalardan farqlashda muhim rol o'ynashini ko'rsatdi.

Shuningdek, frazeologik birliklarning pragmatik mezon asosida nutqiy vazifalari va kommunikativ yuklamasi tahlil qilindi. Ular emotsional ta'sirchanlikni oshiruvchi, tinglovchida obrazli tasavvur uyg'otuvchi vosita sifatida qaraldi. Kognitiv mezon esa frazeologizmlarni inson tafakkurining metaforik tabiatiga bog'ladi va ular ongdagi konseptual tuzilmalar orqali shakllanishini yoritdi. Psixolingvistik mezon leksik birliklarning nutqiy avtomatizm va til o'zlashtirishdagi o'rini ochib berdi. Lingvokulturologik mezon esa frazeologizmlarni milliy-madaniy qadriyatlar, xalq mentaliteti va dunyoqarashining ifodasi sifatida talqin etdi.

Frazeologik birliklarning tipologiyasi bo'yicha turli yondashuvlarning mavjudligi, bir tomondan, soha ichidagi nazariy qarashlarning xilma-xilligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, frazeologiyaning fanlararo xususiyatini ham namoyon qiladi. Zero, frazeologiyani semasiologiya, pragmatika, psixolingvistika, kognitiv lingvistika va lingvokulturologiya bilan uzviy aloqada o'rganish zarurati ham shu jihatdan kelib chiqadi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, frazeologik birliklar nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy tomondan ham katta ahamiyatga ega. Ularning lugʻatshunoslikda tizimlashtirilishi, tarjimada adekvat ekvivalentlarini topish va taʼlim jarayonida samarali oʻrgatilishi zamonaviy tilshunoslikning dolzarb vazifalaridandir. Shu bois frazeologik birliklarning tipologiyasi boʻyicha yaratilgan nazariy asoslar ularni lingvodidaktika, tarjimashunoslik va madaniyatshunoslikda samarali qoʻllash uchun metodologik zamin vazifasini bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklarning tipologiyasi masalasi hozirgi tilshunoslikda koʻp qirrali va kompleks yondashuvni talab etuvchi ilmiy muammo hisoblanadi. Turli olimlarning qarashlari, turli tillardagi tadqiqotlar va qiyosiy tahlillar bu sohaning ilmiy doirasini yanada kengaytirib, frazeologiyaning nazariy va amaliy rivojiga xizmat qilmoqda. Ushbu natijalar keyingi boʻlimlarda frazeologizmlarning semantik va pragmatik jihatdan tahlil qilinishiga nazariy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. — Toshkent: Fan, 2010.
2. Bally Ch. *Traité de stylistique française*. — Heidelberg: C. Winter, 1909.
3. Boers F., Lindstromberg S. *Cognitive Linguistic Approaches to Teaching Vocabulary and Phraseology*. — Berlin–New York: Mouton de Gruyter, 2008.
4. Cowie A.P. (ed.). *Phraseology: Theory, Analysis and Applications*. — Oxford: Oxford University Press, 1998.
5. Fernando Ch. *Idioms and Idiomaticity*. — Oxford: Oxford University Press, 1996.
6. Gibbs R.W. *The Poetics of Mind: Figurative Thought, Language, and Understanding*. — Cambridge: Cambridge University Press, 1994.
7. Kövecses Z. *Metaphor: A Practical Introduction*. — Oxford: Oxford University Press, 2010.
8. Kunin A.V. *A Course in Modern English Phraseology*. — Moscow: Vysshaya Shkola, 1996.
9. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. — Chicago: University of Chicago Press, 1980.
10. Moon R. *Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach*. — Oxford: Clarendon Press, 1998.
11. Rahmatullayev Sh. *Oʻzbek tilining frazeologik lugʻati*. — Toshkent: Oʻqituvchi, 1982.
12. Rahmatullayev Sh. *Oʻzbek frazeologiyasining ayrim masalalari*. — Toshkent: Fan, 1966.

13. Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. — Oxford: Oxford University Press, 1991.
14. Teliya V.N. Russkaya frazeologiya. Semanticheskiy, pragmaticheskiy i lingvokul'turologicheskiy aspekty. — Moskva: Shkola "Yazyki russkoy kultury", 1996.
15. Vinogradov V.V. Osnovnye tipy frazeologicheskikh edinit russkogo yazyka. — Moskva, 1977.
16. Wray A. Formulaic Language and the Lexicon. — Cambridge: Cambridge University Press, 2002.
17. Yo'ldoshev B. O'zbek tilida frazeologik birliklar va ularning pragmatik xususiyatlari. — Toshkent: Fan, 2015.
18. Mamatov A. Frazeologizmlarning struktur-semantik tahlili. — Toshkent: Universitet, 2018.
19. Xakimov Q. Til va madaniyat munosabatlari. — Toshkent: Akademnashr, 2020.